


OQXJ Ijroiya qo‘mitasining dislokatsiyasi



Amalga oshirish muddati 2003-2010-yillarni, umumiy qiymati 1 933,9 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. ODHD-2 dasturi OQXJ Kengashi tomonidan 2002-yil 28-avgustda tasdiqlandi [1:85]. Dastur 14 ustuvor yo‘nalishni o‘z ichiga oldi.

2015-2018-yillar uchun kompleks dasturi qabul qilindi (ODHD-3 dasturi doirasida)". 2018-yil 30-yanvarda OQXJ Kengashining Ashxoboddagi yig‘ilishida ODHD-4 Orol dengizi havzasi mamlakatlariga yordam ko‘rsatish bo‘yicha harakatlar dasturini ishlab chiqishga qaror qilindi [8].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, OQXJ mintaqadagi ekologik inqirozni bartaraf qilishda asosiy rol ni bajarmoqda. Biroq amalga oshirilgan loyihalar Orol dengizi havzasidagi barcha muammolarni hal yetishga va mintaqadagi ekologik inqirozning to‘liq to‘xtatilishiga tubdan ta’sir ko‘rsata olmadi. Ayrim loyihalari, masalan, "Mintaqaviy suv strategiyasining asosiy qoidalari" dasturi hali ham to‘g‘ri amalga oshirilmagan.

Adabiyotlar

1. Ўзбекистон Марказий Архиви, М-114-фонд, 1-рўйхат, 40-йиғма жилд.
2. Ўзбекистон Марказий Архиви, М-114-фонд, 1-рўйхат, 123-йиғма жилд.
3. Ўзбекистон Марказий Архиви М-37-фонд, 1-рўйхат, 5285-йиғма жилд.
4. Ўзбекистон Марказий Архиви, М-37-фонд, 1-рўйхат, 4251-йиғма жилд.
5. Ўзбекистон Марказий Архиви, М-37-фонд, 1-рўйхат, 8714-йиғма жилд.
6. Ўзбекистон Марказий Архиви, М-37-фонд, 1-рўйхат, 3921-йиғма жилд.
7. Соколов В. Роль и значение МФСА в развитии герионального сотрудничества. –Тошкент: Май. 2023.
8. Nurmetov I. Ўзбекистон Республикасининг халқаро экологик алоқалари тарихи. Монография. –Урганч: 2024.
9. wikipedia.org

REZYUME. Bu maqolada Orolbo‘yi aholisi oldida turgan keskin muammolarni hal etishda asosiy rollardan birini bajarayotgan xalqaro tashkilot Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi haqida so‘z boradi. OQXJning tashkil etilishi va faoliyati, amalga oshirgan loyihalari, jamg‘arma oldida turgan dolzarb muammolar haqida fikr yuritiladi.

РЕЗЮМЕ. В статье речь идет о Международном фонде спасения Арала, международной организации, которая выполняет одну из ключевых ролей в решении острых проблем, стоящих перед жителями Приаралья. Также обсуждаются вопросы создания и деятельности Международного фонда спасения Арала, реализуемые проекты, актуальные проблемы, стоящие перед фондом.

SUMMARY. This article is about the International Fund for Saving the Aral Sea, an international organization that plays a key role in solving acute problems facing the residents of the Aral Sea region. Issues related to the creation and operation of the International Fund for Saving the Aral Sea, ongoing projects, and current issues facing the fund are also discussed.

AXLOQ VA UNING JAMIYAT HAYOTIDAGI O‘RNI

G.J.Djamilova – *assistent o‘qituvchi*

O.Y.Joldasbayev – *assistent o‘qituvchi*

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so‘zlar: odob-axloq, ijtimoiy ong, tartib-intizom, insonparvarlik, tarbiya, ezigulik, fazilat.

Ключевые слова: нравственность, социальное сознание, порядок, гуманизм, воспитание, доброта, добродетель.

Key words: morality, social consciousness, order, humanism, upbringing, kindness, virtue.

Kirish. Insoniyat jamiyati tarixan ijtimoiy munosabatlar, odob-axloq meyorlari va ma’naviy qadriyatlar asosida shakllanib va rivojlanib kelgan. Har bir davrning taraqqiyot darajasi, odamlar o‘rtasidagi munosabatlar sifati va jamiyatning barqarorligi, avvalo, undagi axloqiy qadriyatlarning holatiga bog‘liq bo‘lgan. Insan odamlar orasida o‘sadi, ulg‘ayadi, hayot kechiradi, uning butun hayoti va faoliyati davomida har – xil toifadagi ko‘plab insonlar bilan muloqotda bo‘ladi. Bu insonning kundalik hayotiy ehtiyojlarini qondirish zaruratidan kelib chiqadi.

Axloq so‘zining lug‘aviy ma’nosi va jamiyat hayotidagi ahamiyatini tahlil qilamiz. Jamoa bo‘lib yashash jamiyatda qabul qilingan urf-odat, an’ana va qonun-qoidalariga amal qilishni taqozo qiladi. Ana shu jarayonda inson va jamiyat o‘rtasida yuzaga keladigan obektiv aloqadorlik, yani ijtimoiy munosabat – xulq-atvor, odob, xatti-harakat, tamoyil va normalarning majmuasi axloqning mazmun mohiyatini tashkil etadi [1:6].

Adabiyotlar tahlili. Axloqning jamiyatdagi ahamiyati haqida Amerikalik siyosatchi Benjamin Franklin o‘zining

yutuqlari siriga to‘xtalar ekan “men hech narsa haqida yomon so‘z aytmayman. Lekin har kim haqida bilgan hamma yaqshiliklarini aytib yuraman” degan edi. Siyosatchi bu fikri bilan axloqiy normalarning umumiy munosabotlarida juda muhim ekanligini ko‘rsatadi. Huquqiy tarafdan qargalganda axloq majburiy bo‘lmagan atamalar bilan ifodalanadi, jamiyat axloqiy holatining darajasi, kesimi sifatida qabul qilinadigan, belgilangan qoidalarga mutanosib amal va harakatlarda amalga oshiriladi. Axloq, huquqqa nisbatan ancha keng qamrovlidir. Axloqiy talab huquqiy qonun-qoidalarda o‘z aksini topadi. Muayyan jamiyatda huquqiy qonun-qoidalar o‘sha mintaq xalqi tomonidan ishlab chiqilgan axloqiy aqidalar, tamoyillar, meyorlar, shuningdek, nisbatan umumiy xususiyatga ega bo‘lgan urf-odatlar zamirida vujudga keladi. Axloq bilan huquq, garchand, bir ildizga ega bo‘lsa-da, ularning jamiyat axloqiy hayotini boshqaruv usuli har xildir: axloq asosan tushuntirish, pand-o‘gitlar vositasida ish ko‘rsa, huquq majburiy usul, jazo choralari orqali ish olib boradi.

Axloq va uning ijtimoiy mohiyati to'g'risida Abdulla Avloniy shunday deydi: «Insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytarguvchi bir ilmdur. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar ila bayon qiladurg'on kitobni axloq deyilur. Axloq ilmini o'qub, bilub amal qilgan kishilar o'zining kim ekanin, janobi Haq na uchun xalq qilganin, yer yuzida nima ish qilmak uchun yurganin bilur» [5:3]. Ko'rinib turibdiki, A.Avloniy axloqqa nisbatan nafaqat ilmiy ta'rif beradi, balki insonning ma'naviy olamidagi quyoshi sifatida ta'rif beradi. Yaxshi xulqlarning yaxshiligi, yomon xulqlarning yomonligi» bevosita siyosiy faoliyatda ham o'z ifodasini namoyon qiladi. Chunki, xulq-atvor inson faoliyati orqali ijtimoiy hayotga u yoki bu tarzda ta'sir o'tkazadi.

Axloq tafakkur taraqqiyotida Xitoy mutafakkiri Konfutsiyning qarashlari muhim o'rin tutadi. Uning ta'limoti ta'siri nafaqat Xitoy, balki boshqa mamlakatlarda ham yaqqol sezilgan. 1988-yilda Xalqaro Nobel mukofotining Parijdagi yig'ilishi Murojaatnomasida insoniyat XXI asrda yashab qolishini istasa, 25 asr ilgari yashab ijod etgan Konfutsiyning donishmandligidan yaxshi xabardor bo'lmog'i darkor [6:7] degan e'tirofdan ham buni anglash mumkin.

Konfutsiyning o'z nomi bilan ataluvchi ta'limoti tom ma'noda ijtimoiy-axloqiy, falsafiy g'oyalarga to'liq bo'lib, hikmatli amaliy xususiyati bilan ajralib turadi. "O'zingga ravo ko'rmaganni o'zgaga ham ravo ko'rma" shiori Konfutsiy g'oyalarining markazida turadi [7:8].

Konfutsiyning fikri bugungi kunda axloqning oltin qoidasi deb atalishiga sabab uning hamma xalqlarda mavjudligidir. Shuningdek, bu qoidaning o'ziga xos xususiyati shundaki, uning shakllari har xil mazmuni birdek bo'lishi bilan ajralib turadi.

Muhokama. Axloq (arab. xulqning ko'pligi; lot. *moralis* – xulq-atvor) – manaviy hayot hodisasi, ijtimoiy ong shakllaridan biri, manaviyat sohasiga oid tushuncha. Shuningdek, Qadimgi Rim madaniyatida "axloq" so'zi inson hayotining ko'plab hodisalari va sifatlarini bildirgan: fel-atvor, odat, xarakter, xulq-atvor, qonun, modda va boshqalar. Keyinchalik bu so'zdan boshqa atama - *moralis* (xarakterga, odatga taalluqli ma'nosida) shakllangan va keyinchalik (eramizning IV asrida) *moralitas* (axloq) atamasi paydo bo'lgan. Binobarin, etimologik mazmun jihatidan qadimgi yunon etikasi va lotin moralitsasi bir-biriga mos keladi [2:31].

Shuningdek, axloq-jamiyat, zamon, ba'zan insoniyat tarixi uchun namuna bo'la oladigan umumbashariy ahamiyatga ega ijobiy xatti-harakatlar yig'indisi, insoniy kamolot darajasini belgilovchi ma'naviy hodisa sifatida tushuntiriladi [3:8].

Axloq ijtimoiy ong shakllaridan biri, u insoniyat ilk bosqichlarida paydo bo'lgan, iqtisodiy va boshqa munosabatlarning o'zgarishi davomida, insoniyat moddiy va ma'naviy madaniyatining taraqqiyoti jarayonida rivojlanib borgan. Axloqiy tamoyillarining eng qadimiy va eng muhimlaridan biri insonparvarlik. U insonning yuksak ijtimoiy vazifasini belgilaydigan va barqaror etadigan g'oyalar, qarashlar va e'tiqodlar majmuyi, shaxs erki, qadr-qimmat, uning baxtli bo'lish huquqini talab etish imkonining mavjudligiga yengilmas ishonch. Insonparvarlik tamoyilini dastlab Ovropa Uyg'onish mutafakkirlari ilgari surganlar, degan fikr mavjud. Aslida,

insonparvarlik dastavval Sharqda o'rta tashlangan, insoniylik, insonparvarlik degan ma'noni bildiruvchi "namlulu" so'zi bundan 3-4 ming yillar avvalgi Qadimgi Somir Mix xatlarida uchraydi [4:211].

Axloq ijtimoiy ongning eng qadimgi shakllaridan biri. Davr o'zgarib borgan sari har qanday xodisa kabi axloq ham o'zgaradi rivojlanib, takomillashib, madaniyatning ko'rinishlaridan biriga aylanib boradi. Axloqda ijtimoiy zaruriyat, ehtiyoj, jamiyatning manfaatlari aks etadi, hamma qabul qilgan ommaviy namuna, odat, pasm-taomil jamoatchilik fikri bilan mustahkamlangan talablar va baholar tarzida ifodalanadi. Shuning uchun, axloq talablari hammaga bab-barabar qaratilgan lekin hesh kimning buyrug'i bilan joriy etilmagan burch, majburiyat tarzida namoyan bo'ladi. Bu talablar nisbatan barqaror xarakterga ega. Ijtimoiy hayotning turli sohalarida axloqning o'ziga xos meyoriy-qoidalari (mehnat axloqi, xizmat ko'rsatish axloqi, kasbiy axloq va maishiy turmush, oila axloqi) ifodalanadi va qoida-meyorlar axloqning yagona asosga ega bo'lgan nisbatan mustaqil sohalarini tashkil etadi. Axloq moddiy va manaviy madaniyatning taraqqiyoti jarayonida rivojlanadi.

Axloq ijtimoiy tartib-qoida bo'lib, bu tartib-qoida ijtimoiy hayotning istisnosiz hamma sohalarida kishilarning xatti-harakatini tartibga solish funksiyasini bajaradi. Axloq ijtimoiy faoliyatni tartibga solishning boshqa shakllaridan o'z talablarining asoslanishi bilan farq qiladi. Axloq vijdon, burch, qadr-qimmat, or-nomus, adolat va boshqa tushunchalar orqali inson hayotini tartibga soladi. O'z ijtimoiy mazmuni jihatidan axloqiy qoidalar umuminsoniy ham milliy bo'lishi mumkin. Axloq va axloqiylik o'z-o'zidan yuzaga keladigan jarayon emas. Bu jarayon keng qamrovli bo'lib, o'zida bir qator ijtimoiy-manaviy ko'rinishni mujassam etadi, manaviyat tizimidagi sohalar bilan yaqindan aloqada bo'ladi. Jamiyat a'zolarining axloqiy fazilatlarini, ularni shakllantirish va takomillashtirish vazifalari, ta'lim-tarbiyaning yo'llari va usullariga kishilarning yashash va mehnat qilish sharoitlari, turmush tarzi, milliy jihatlari, diniy e'tiqodlari katta ta'sir ko'rsatgan.

Axloq har bir shaxsning xulqini aks ettirib, ijtimoiy munosabatlarning uyg'unlashuviga xizmat qiladi. Axloqning yuksak darajada shakllanishi jamiyat rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, aksincha, axloqsizlik esa uning izdan chiqishiga sabab bo'lishi mumkin. Axloqsizlik nafaqat alohida shaxs, balki butun bir jamiyat istiqboliga putur yetkazadi. Shu bois, har qanday jamiyatning barqarorligi va rivojlanishi axloqiy qadriyatlarga asoslangan munosabatlarga bog'liqdir. Axloqning jamiyatning barcha jabhalariga singib borishi va unga amal qilinishi ijtimoiy adolat tamoyillarining shakllanishiga xizmat qiladi. Biroq, bunda eng muhim omil sifatida shaxsning ichki axloqiy tarbiyasi hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Shunday ekan, axloq nafaqat shaxsiy hayotda, balki jamiyat taraqqiyotida ham muhim o'rin tutadi. Insonning axloqiy qadriyatlari yuksak bo'lsa, u nafaqat o'z hayotini, balki jamiyatning kelajagini ham ravnaq topishiga hissa qo'shadi.

Inson o'z hayotini yaxshilash ishtiyoqidan hech qachon to'xtamaydi. Ya'ni inson kamoloti jarayonida axloqning barcha qirralari o'zaro bog'liq holda shakllanadi va rivojlanadi. Axloq inson hayotga qadam qo'yayotgan dastlabki davrdanoq shakllanib, uning kamolotiga zamin

yaratuvchi ichki ruhiy omil bo'lib xizmat qiladi. Inson tarbiya ko'rib, muayyan odob va axloq meyorlarini, ilmlarni egallaydi, mehnat qilib tajriba orttiradi, kasb-hunar sohibi bo'ladi, malaka orttiradi, o'z qobiliyati va istedodini biror yoki bir necha sohada to'la namoyon etish imkoniga ega bo'ladi.

Axloq - barcha odamlar uchun birdek taalluqli hisoblangan, ijtimoiy talablar ham da ehtiyojlarning munosabatlar shaklidagi ko'rinishidan iborat bo'lgan, insonga berilgan ixtiyor erkinligining xatti-harakatlar jarayonida ichki iroda kuchi tomonidan oqilona cheklanishini taqozo etuvchi ma'naviy hodisa. Axloq ijtimoiy tartib-qoida bo'lib, bu tartib-qoida ijtimoiy hayotning istisnosiz hamma sohalarida kishilarning xatti-harakatini tartibga solish funksiyasini bajaradi. Har qanday axloqiy ta'limotlar jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichida obyektiv, subyektiv ehtiyojlar va zaruriyatlar asosida kelib chiqqan.

Xulosa va tavsiyalar. Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, axloq insoniyat jamiyati taraqqiyoti, barqarorligi va ma'naviy yuksalishining ajralmas tarkibiy qismidir.

Adabiyotlar

1. Muhammadjonova L. Amaliy etika va estetika. O'quv qo'llanma. – Tashkent: 2020. 256-b.
2. Qodirov D.H. Ijtimoiy ishning etik prinsiplari va qadriyatlar. O'quv qo'llanma. – Tashkent: «Lesson Press», 2023.
3. Sher Abdulla. Axloqshunoslik: Oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlari uchun darslik. Masul muharrir B.E.Husanov; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – Tashkent: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti», 2010.
4. Маънавият: асосий тушунчалар изоҳли луғати. ЎзР Президенти ҳузуридаги Давлат ва ҷамият қурилиши академияси, Ўзбекистон файласуфлари миллий ҷамияти; таҳрир ҳайъати: Х.Султонов ва бошқ.; тузувчи ва масъул муҳаррир Қ.Назаров. – Ташкент: «Гафур Гулом», 2010.
5. Avloniy Abdulla. Turkiy guliston yoxud axloq: Ibratli hikoyalar. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. –Toshkent: 2004. 96-b.
6. Ismatullayeva N . Konfutsiy hayoti va Lun Yuy asari. – Tashkent: TDSHI nashriyoti, 2013. 7-6.
7. Konfutsiy. Suhbat va mulohazalar. – Tashkent: «Yangi asr avlodi», 2014, 8-6.

REZYUME. Maqolada odob-axloqning inson hayoti va yoshlar tarbiyasidagi o'rni va ahamiyati, ko'rib chiqiladi. Odob-axloq insonning jamiyat bilan munosabatlari asosini tashkil qiladi. Yoshlarni tarbiyalashda sharqona va milliy odob-axloq me'yorlariga asoslangan faoliyat bilan birga jamiyatga hurmat, insonparvarlik munosabati kabi fazilatlarini shakllantirish zarurligi ta'kidlanadi.

РЕЗЮМЕ. В статье рассматривается роль и значение этики в жизни человека и воспитании молодежи. Нравственность составляет основу взаимоотношений человека с обществом. В воспитании молодежи говорится о необходимости формирования таких качеств, как уважение к обществу и гуманное отношение к людям, а также деятельности, основанной на восточных и национальных нравственных нормах.

SUMMARY. The article examines the role and importance of ethics in human life and the education of youth. Morality is the basis of human relations with society. In the education of youth, it is said about the need to develop such qualities as respect for society and humane attitude towards people, as well as activities based on Eastern and national moral standards.

ИЛИМ ТАРИЙХЫНДА ИЛИМЛЕРДИ КЛАССИФИКАЦИЯЛАЎ МАШҚАЛАСЫ

З.Б.Есназарова – тарийх илимлериниң кандидаты, доцент

У.Е.Хужаниязов – тарийх илимлари бойыниша философия докторы

Эжинияз атындағы Нөкіс мәмлекетлик педагогикалық институты

Таянч сўзлар: фан, фалсафа, дифференциаллашиш, классификация, рационалистлик, эволюция, парадигма.

Ключевые слова: наука, философия, дифференцироваться, классификация, рационализм, эволюция, парадигма.

Key words: science, philosophy, differentiation, classification, rationalism, evolution, paradigm.

Кирисиў. Ең әйемги заманлардан баслап, инсанның билиў искерлиги шеңбериндеги әхмийетли машқалалардан бири бул – дүньяны өзлестириў хәм дүнья ҳаққындағы билимлерди тәртипке салыў зәрүрлиги болған.

Методология. Илимий хәм илимий-техникалық жумысты шөлкемлестириўде классификация сыяқлы метод үлкен әхмийетке ийе болып, онда логикаға

Инсон камолоти, шахсий yuksalish, kasbiy muvaffaqiyat hamda jamiyatdagi uyg'un munosabatlar aynan axloqiy tamoyillarga asoslanadi. Axloq nafaqat har bir shaxsning ichki dunyosini, balki butun bir xalqning madaniy darajasini, ma'naviy yuksakligini va istiqbolini belgilovchi mezondir. Axloqiy qadriyatlar singib borgan jamiyatda ijtimoiy adolat, totuvlik va taraqqiyot bo'ladi. Aksincha, axloqsizlik jamiyatda beqarorlik, ishonchsizlik va tanazzulga sabab bo'lishi mumkin.

Shunday ekan, bugungi taraqqiyot va ma'naviy yuksalish jarayonida axloqiy tarbiya va qadriyatlarga asoslangan yondashuv harqachongidan ham dolzarbdir. Ayniqsa, yosh avlodni sharqona odob-axloq asosida tarbiyalash, ularni jamiyat oldidagi burch va mas'uliyatni his qilishga o'rgatish milliy taraqqiyotning mustahkam poydevorini yaratadi. Axloq har qanday ijtimoiy sohada samarali faoliyat yuritishning, ijtimoiy munosabatlarni barqaror yuritishning, insoniy munosabatlarning eng muhim mezoni bo'lib qolaveradi. Shu boisdan, axloq va ma'naviyatni uyg'un holda rivojlantirish – jamiyat ravnaqi va inson kamolotining asosiy kafolatlaridan biridir.

тийқарланған байланыслар хәм типологиялық белгилерди, түсиниклерди орнатыў арқалы бир-бирине бойсыныў хәм өз ара тәсир етиўдиң белгили принципери тийқарында түсиниклер топары ямаса структурасы жаратылады.

Нәтийжелер. Илимди классификациялаў машқаласы көп тәреплеме илим түсинигиниң өзиниң тарийхы менен байланыслы болып илимде үстемлик